

TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY TARBIYA: YANGICHA YONDASHUVLAR VA INNOVATION METODLAR

Raxmatov Mustafu Musurmon o'g'li

*Toshkent ijtimoiy va innovatsiyalar
universiteti magistratura talabasi*

*“Ma'naviyat insonning ichki dunyosini shakllantirib,
uning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini belgilaydi”¹*

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning yosh avlod kamolotidagi o'rni hamda zamonaviy sharoitda ma'naviy tarbiyani tashkil etishga doir yangicha yondashuvlar va innovatsion metodlar tahlil qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, interaktiv metodlar, mentorlik tizimi va loyihaviy yondashuvlarning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Maqola ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiyani yanada samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlangan.

Аннотация. В статье анализируются содержание и сущность духовного воспитания в системе образования, его роль в развитии подрастающего поколения, а также новые подходы и инновационные методы организации духовного воспитания в современных условиях. Отмечаются преимущества личностно-ориентированного образования, интеграции цифровых технологий, интерактивных методов, систем наставничества и проектного подхода. В заключение статьи даются рекомендации по более эффективной организации духовного воспитания в образовательном процессе.

Abstract. This article analyzes the content and essence of spiritual education in the education system, its role in the development of the younger generation, as well as new approaches and innovative methods for organizing spiritual education in modern conditions. The advantages of person-centered education, integration of digital technologies, interactive methods, mentoring systems, and project approaches are highlighted. The article concludes with recommendations for more effective organization of spiritual education in the educational process.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, shaxs kamoloti, ma'naviy tarbiya, innovatsion pedagogika, interfaol metodlar, innovatsiya,

Ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya shaxs kamolotini ta'minlash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish va jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shishda

¹ I.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

muhim o'rin tutadi. U faqat bilim berish bilangina cheklanmay, o'quvchilarni yuksak ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarga ega insonlar sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

"Ma'naviyat - insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi" dir.[1.24]. Ushbu tushuncha ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida: "Ma'naviyat - moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa" - deb, ta'kidlangan.[6.56] Mazkur ikki ta'rifda ham ma'naviyat falsafiy kategoriyasining ko'proq amaliy jihatlariga e'tibor qaratilgan.²

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'naviyat - insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz.

Ma'naviy tarbiyani rivojlantirishdagi dolzarb vazifalar: Hozirgi davrda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodda milliy g'urur, tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va tolerantlikni shakllantirishdir. Bunda interfaol metodlardan, teatr va madaniy tadbirlardan, ijtimoiy loyihalardan, hamda yoshlar bilan ochiq muloqotdan faol foydalanish muhim. Har bir pedagog yoshlar bilan ishlashda faqat bilim emas, balki hayotiy tajriba, axloqiy namunalar bilan yetakchi bo'lishi kerak. Axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi, madaniyatsiz kontentlar va soxta qadriyatlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yoshlar uchun ma'naviy tarbiyaviy platformalar, mobil ilovalar, videodarslar, ma'naviy vloglar yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglar axborot xavfsizligini ta'minlab, yoshlarni ijobiy yo'nalishga yo'naltirishda faol bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonining yutug'i bu unung ta'sirchanligidadir. Ya'ni yangicha yondashuv, ta'limninganiq yo'naltirilgan maqsadi va uning mohiyatini ochib berish usullari ta'limda engdolzarb masala hisoblanadi.³

Zamonaviy davrda innovatsion texnologiyalarjuda tez rivojlanmoqda. Internet, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va boshqa texnologiyalar innovatsionjarayonlarni tezlashtiradi. Ushbu texnologiyalaryordamida yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, shuningdek, mavjud jarayonlarni takomillashtirishimkoniyatlari paydo bo'ladi. Bugungi shiddatli va ilm fan ilgarilab borayotgan davrda ta'lim tizimida eskicha yondashuvlardan voz kechish hamda yangilikka intilish, zamonaviy ta'limdayuqori va innovatsion dars o'tish talablarini allaqachon kun tartibiga qo'ygan. Bundan bir necha yil oldingi tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, "innovatsiya"so'zi ko'pchilik uchun notanish, tushunarsiz bir tushuncha bo'lgan. Biroq, asta-sekin bu so'zning xoriждан

² Фалсафа: Комусий лугат. -Т.: "Шарк;", 2004, 225-бет

³ Маънавият асосий тушунчалар изоғли луғати. -Т.: "Ғафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи", 2009, 33-бет.

kirib kelishi va tez-tez quloqqa chalinib turishi bilan, bu atamani qo'llay boshladik. Tan olishimiz kerak, ma'lum muddat mamlakatimizda bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlarqoniqarli darajada amalga oshmagan. Shu sababdan, davlatimiz rahbari o'z lavozimiga kirishgan dastlabki yillardanoq, bu yo'ldagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan chora- tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli yo'nalishlarni belgilab berdi.⁴

Bugungi innovatsion texnologiyalar hamda axborot kommunikatsiya vositalarining shiddat bilan rivojlangan davrida yashayotgan ekanmiz, hayotimizda ularning o'rni hamkundan-kunga oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda tan olib aytish kerakki, innovatsion texnologiyalarning ta'limda tutgan o'rni ham oshib bormoqda va bu ta'limsifatini yaxshilashga, yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash doirasini kengayishiga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar hamda metodlar bilan ishlash dunyo bo'yicha keng tarqalmoqda va bu nafaqat ta'lim sohasidabalki hartomonlama yutuqlarga erishishning asosiy omili bo'lib kelmoqda. Umuman olganda "Innovatsiyon texnologiya - bu o'zi nima? " degan savol tug'ilishi mumkin. Innovatsiya - ingliz tilidan olingan bo'lib, "yangilik kiritish", "yangilik", texnologiya esa yunoncha "texnos" - san'at, mahorat va "logos" - fan so'zlaridan olinib, innovatsion texnologiya ta'lim -tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashishdegan ma'nolarni ifodalaydi. Innovatsion texnologiyalar o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchikadrlar tayyorlash,⁵

Innovatsion texnologiyalar – bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, jarayonlari yoki xizmatlar bo'lib, ular mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish yoki yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida ishlab chiqiladi. Ushbu texnologiyalar ko'pincha ilmiy tadqiqotlar vatajribalarga sosida yaratiladi va ularning asosiy maqsadi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foydalanuvchilarga yangi imkoniyatlar taqdim etishdir. Innovatsion texnologiyalarning asosiy xususiyatlari: 1. Yangi g'oyalar: Innovatsion texnologiyalar yangi g'oyalar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi, bu esa ularni boshqa texnologiyalardan ajratib turadi. 2. Raqobatbardoshlik: Innovatsion texnologiyalar kompaniyalar va tashkilotlarga raqobatbardoshligini oshirishda yordam beradi. 3. Samaradorlik: Ular jarayonlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

⁴ . <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

⁵ . Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.: TDPU, 2004. – 42 b

- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishnikafolatlashi zarur.⁶

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankungakuchayibbormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.⁷

Xulosa qilib aytganda, zamon rivojlanishi bilan hayotning barcha sohalarida, xususan pedagogika ya'ni o'qitish va ta'lim jarayonida ham ko'pgina yangiliklar vujudga keladi. Vaharbir qilingan islohot kelajakni yanada muvaffaqiyatli yanada ishonchli qilib ta'minlashgayordam beradi. Ayniqsa o'qitish jarayonidagi islohotlar, innovatsion texnologiyalari yoshavlodni tezkorlik bilan samarali bilim olishlarini ta'minlab beradi va bu ko'pginadavlatlar xususan mamlakatimiz O'zbekiston tajribasida ham o'z isbotini topib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Ular yangi imkoniyatlar yaratish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va ularni samarali qo'llash orqali biz kelajakda yanada barqaror va rivojlangan jamiyatga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.:TDPU, 2003. – 51b
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.: TDPU, 2004. – 42 b
4. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogik maxorat. Toshkent. TDIU, 2007 yil. – 86b
5. Фалсафа: Комусий лугат. -Т.: "Шарк", 2004, 225-бет.
6. Маънавият асосий тушунчалар изоғли луғати. -Т.: "Ғафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи", 2009, 33-бет.
7. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
8. www.ziyounet.uz – O'zbekiston ta'lim va ma'naviyat portal.

⁶ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.:TDPU, 2003. –51b

⁷ www.ziyounet.uz – O'zbekiston ta'lim va ma'naviyat portal.